

NEFT VA GAZ KORXONALARIDA FOYDALI QAZILMALARNI QIDIRISH VA
MAJBURIYATLARNI BAHOLASH BUXGALTERIYA HISOBIDA
(MHXS / IFRS 6 VA IAS 37 ASOSIDA)

Shamsiyeva Nozima Shermat qizi

United Energy Group Central Asia iqtisodchisi.

E-mail: renesmeecollen1@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21908979>

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi neft va gaz korxonalarini faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini i'nbolatga olgan holda, geologik-qidiruv va baholash xarajatlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS / IFRS) talablari asosida buxgalteriya hisobida aks ettirish metodologiyasi tadqiq etilgan. Tadqiqotda IFRS 6 (Foydali qazilmalarni qidirish va baholash) va IAS 37 (Zahiralar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar) standartlarini birgalikda qo'llash mexanizmi tahlil qilingan. Qidiruv xarajatlarini kapitallashtirish va xarajatga chiqarish mezonlari, qidiruv aktivlarining qadrsizlanishi hamda bo'lajak demontaj va atrof-muhitni tiklash majburiyatlarini aktiv tannarxiga kiritishning amaliy jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Neft va gaz sanoati, geologiya-qidiruv xarajatlari, IFRS 6, IAS 37, kapitallashtirish, Successful Efforts, Full Cost, qadrsizlanish (impairment), demontaj majburiyati, qayta tiklash rezervi.

Аннотация. В данной статье исследована методология отражения затрат на разведку и оценку полезных ископаемых в бухгалтерском учете предприятий нефтегазового сектора с учетом международных стандартов финансовой отчетности (МСФО). Подробно проанализирован механизм совместного применения стандартов IFRS 6 («Разведка и оценка запасов полезных ископаемых») и IAS 37 («Оценочные обязательства, условные обязательства и условные активы»). Рассмотрены критерии капитализации и списания затрат, обесценение поисковых активов, а также практические аспекты включения обязательств по демонтажу и восстановлению окружающей среды в первоначальную стоимость активов.

Ключевые слова: Нефтегазовая отрасль, затраты на геологоразведку, IFRS 6, IAS 37, капитализация, Successful Efforts, Full Cost, обесценение активов, обязательства по демонтажу, резерв на рекультивацию.

Abstract. This article examines the methodology of accounting for exploration and evaluation costs in oil and gas enterprises in accordance with International Financial Reporting Standards (IFRS). The mechanism of joint application of IFRS 6 (Exploration for and Evaluation of Mineral Resources) and IAS 37 (Provisions, Contingent Liabilities and Contingent Assets) is analyzed in detail. The study covers the criteria for capitalizing and expensing exploration costs, impairment testing of exploration assets, and the practical aspects of recognizing decommissioning and environmental restoration liabilities as part of the asset cost.

Keywords: Oil and gas industry, exploration and evaluation costs, IFRS 6, IAS 37, capitalization, Successful Efforts, Full Cost, impairment, decommissioning provision, restoration liability.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xususiylar va xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish hamda milliy korxonalarning xalqaro moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2025-yil 15-sentabrdagi PQ-282-son "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari milliy buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini tubdan isloh qilish uchun huquqiy poydevor yaratib berdi.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarda respublikaning yirik soliq to'lovchilari, aksiyadorlik jamiyatlari hamda strategik sohaga ega bo'lgan korxonalarida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS / IFRS) bosqichma-bosqich va majburiy joriy etish, shuningdek, Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini xalqaro amaliyotga to'liq moslashtirish vazifasi yuklatilgan.

Mamlakat iqtisodiyotining tayanch ustunlaridan biri bo'lgan neft va gaz sanoatida buxgalteriya hisobini MHXS talablariga o'tkazish alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki geologiya-qidiruv va baholash jarayonlari yuqori xavf-xatar (high risk), noaniqlik va katta hajmdagi kapital qo'yimlarni talab etishi bilan boshqa sohalaridan keskin ajralib turadi. Ushbu jarayonlarni buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirish va aktivlarni baholashda IFRS 6 (Foydali qazilmalarni qidirish va baholash) hamda IAS 37 (Zahiralalar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar) standartlarini uyg'un holda qo'llash alohida metodologik yondashuvni talab qiladi.

MHXS IFRS 6 Standartiga ko'ra, foydali qazilmalar zaxiralarini qidirish, jumladan mineral xomashyo, neft, tabiiy gaz va shunga o'xshash qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarni qidirish ishlari korxona muayyan hududda razvedka (qidiruv) ishlarini olib borish uchun qonuniy huquqni qo'lga kiritgandan keyin amalga oshiriladi.

Foydali qazilmalarni qazib olishning texnik **jihatdan imkoniligi** (amalga oshirilishi mumkinligi) va **tijorat jihatdan maqsadga muvofiqligini** aniqlashdir.

Foydali qazilmalarni qidirish va baholash bilan bog'liq aktivlar dastlabki (boshlang'ich) qiymat bo'yicha baholanadi.

Xususan, quyidagi xarajatlar **aktiv** sifatida tan olinishi mumkin (mazkur ro'yxat to'liq emas):

- geologik-qidiruv ishlarini amalga oshirish huquqini qo'lga kiritish xarajatlari;
- topografik, geologik va boshqa tadqiqotlar xarajatlari;
- qidiruv va razvedka burg'ilash ishlari xarajatlari;
- transheyalar qazish, namunalar va sinov namunalarini olish xarajatlari;
- loyihaning texnik jihatdan amalga oshirilishi hamda tijorat (iqtisodiy) jihatdan maqsadga muvofiqligini baholash xarajatlari;

MXHS (IAS) 37 "Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar" talablariga muvofiq, qidiruv va baholash ishlari natijasida yuzaga keladigan asosiy vositalarni

demontaj qilish hamda tabiiy resurslarni (yer uchastkasini) tiklash bo'yicha baholangan majburiyatlardir.

IFRS 6 standartida foydali qazilmalarni qidirish va baholash bosqichida yuzaga keladigan xarajatlarni korxonaning hisob siyosatiga muvofiq aktiv sifatida tan olish imkoniyati berilgan.

Biroq ushbu aktivlardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan demontaj qilish, yer maydonlarini rekultivatsiya qilish hamda atrof-muhitni tiklash majburiyatlari IAS 37 talablari asosida baholangan majburiyat sifatida e'tirof etiladi.

Amaliyotda aynan ushbu ikki standartning integratsiyalashgan holda qo'llanishi neft va gaz korxonalarining moliyaviy hisobotida aktivlarning haqiqiy qiymatini aks ettirish, kelgusidagi majburiyatlarni o'z vaqtida tan olish hamda investorlar uchun ishonchli axborot shakllantirish imkonini beradi.

Bugungi kunda O'zbekiston neft va gaz korxonalarida MHXSni joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, qidiruv va baholash xarajatlarini hisobga olish metodologiyasida ayrim amaliy muammolar saqlanib qolmoqda.

Birinchidan, geologiya-qidiruv xarajatlarini kapitallashtirish mezonlari barcha korxonalarda bir xil qo'llanilmaydi. Ayrim korxonalarda xarajatlar darhol davr xarajatlariga o'tkazilayotgan bo'lsa, boshqalarida ular qidiruv aktivlari sifatida e'tirof etilmoqda. Bu esa moliyaviy hisobotlarning taqqoslanuvchanligini pasaytiradi.

Ikkinchidan, IAS 37 talablariga muvofiq demontaj va rekultivatsiya majburiyatlarini baholash hamda diskontlash amaliyoti hali to'liq shakllanmagan. Natijada kelgusidagi ekologik majburiyatlar moliyaviy hisobotlarda to'liq aks ettirilmayapti.

Uchinchidan, amaldagi milliy hisob tizimida IFRS 6 bo'yicha qidiruv aktivlarini alohida hisobga olish uchun yetarli metodik tavsiyalar va hisob registrlari ishlab chiqilmagan.

So'nggi yillarda O'zbekistonda moliyaviy hisobotlarni raqamlashtirish va MHXS asosida yuritishga o'tish jarayonlari jadallashmoqda. ERP tizimlari (SAP, Oracle, 1C ERP va boshqa korporativ axborot tizimlari)ni joriy etish natijasida geologiya-qidiruv xarajatlarini obyektlar kesimida hisobga olish, aktivlarning harakatini monitoring qilish hamda IAS 37 bo'yicha baholangan majburiyatlarni avtomatik hisoblash imkoniyatlari kengaymoqda.

ERP (Enterprise Resource Planning) — korxonaning barcha biznes jarayonlarini bitta dastur orqali boshqaradigan axborot tizimi.

Masalan, neft va gaz kompaniyasida ERP quyidagi bo'limlarni birlashtiradi:

- Buxgalteriya hisobi
- Moliyaviy hisobot
- Ombor
- Xaridlar
- Asosiy vositalar
- Ish haqi
- Byudjet
- Geologiya-qidiruv loyihalari
- Shartnomalar

Bularning barchasi yagona ma'lumotlar bazasida ishlaydi.

Korxonaning Geologiya bo'limi burg'ilash xarajatini kiritadi ERP avtomatik ravishda:

- loyiha obyektiga bog'laydi;
- IFRS 6 bo'yicha Exploration Asset hisobiga o'tkazadi;
- moliyaviy hisobotni yangilaydi.

Shuning uchun ERP inson xatosini kamaytiradi.

1C — ERP tizimlaridan biri bo'lib Rossiya va MDH davlatlarida eng ko'p ishlatiladigan buxgalteriya dasturi. 1C dasturi ichida:

- Schyotlar
- Provodkalar
- Amortizatsiya
- Asosiy vositalar
- Materiallar hisobi
- Balans, Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisob hammasi yuritiladi.

Agar IFRS 6 moduli qo'shilsa, geologiya xarajatlari avtomatik ravishda foydali qazilmalarni qidirish va baholash bosqichi (Exploration and Evaluation Assets) hisobiga tushadi.

ERP yoki 1C avtomatlashtirilsa, dasturning o'zi Bu IFRS 6 bo'yicha aktivmi, Bu davr xarajatimi, IAS 37 bo'yicha rezervmi, aniqlaydi. Natijada xatolar kamayadi, xatolar kamayadi, audit osonlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4611-son Qarori. 2020-yil 24-fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-282-son Qarori. 2025-yil 15-sentabr.
3. IFRS Foundation. *IFRS 6 Exploration for and Evaluation of Mineral Resources*. London: IFRS Foundation.
4. IFRS Foundation. *IAS 37 Provisions, Contingent Liabilities and Contingent Assets*. London: IFRS Foundation.
5. IFRS Foundation. *Conceptual Framework for Financial Reporting*. London: IFRS Foundation.
6. John A. Tracy. *Oil and Gas Accounting*. PennWell Corporation.
7. Nobes C., Parker R. *Comparative International Accounting*. Pearson Education.
8. Ernst & Young (EY). *International GAAP 2025*. Wiley, 2025.
9. KPMG. *Insights into IFRS*. 22nd Edition. KPMG International, 2025.